

TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI

Abduxalilov Jaxongir

talaba

Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli

o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10353282>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasini jadal rivojlanishi, unga sabab bo'ladigan omillar, rivojlanish davrlari va boshqa yo'nalishlari hamda uning jahon iqtisodiyotiga keltiradigan nafi haqida tahlil qiladi. Turli xil metodlar orqali turizmni rivojlantirish yo'lari haqida tavsiyalar hamda maslahatlar beradi. Bundan tashqari O'zbekistonning turizm salohiyatini jahondagi rivojlangan mamlakatlar turizimi salohiyati bilan solishtiradi.

Kalit so'zlar. Turizm, turistik majmua, turpaket, turist, jahon iqtisodiyoti, YaIM, mahalliy turizm, xalqaro turizm, pullik mehmondo'stlik xizmatlari.

Bugungi kunda turizm iqtisodiyotni eng tez rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan bo'lib, u transport, oziq-ovqat, mehmonxona, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qurilish va boshqa xizmat turlarini rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakat tashqi qiyofasini zamonaviylashtirishga, mehmonxona va restoran industriyasini rivojlantirishga hamda transport - kommunikatsiya tizimlari kabi tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon turizmi to'g'risidagi ta'limot nuqtai nazaridan qadim va o'rta asrlarda bo'lgan sayohatchilarni - "turist" sifatida tan olinmaydi, chunki bunday - "sayohatchilar" oldiga qo'ygan maqsadlar hozirgi vaqtdagilardan: o'zga joylarda, yurtlarda ko'rsatiladigan pullik mehmondo'stlik xizmatlaridan bahra olish, zavqlanish, vaqtincha bo'lsa ham o'z hayot tarzidan boshqacha bo'lgan hayotdan shung'ib ketish, o'rganish, milliy an'analar, urf-odatlar ta'sirida mahliyo bo'lishmagan. Ularga maxsus tayyorgarlikdan o'tib ixtisoslashgan turistik korxonalar xizmat ko'rsatmagan. Bu sayohatchilar to'g'ri kelgan havfsiz joylarda tunashgan, duch kelgan joyda ovqatlanishgan. Ularga ko'rsatiladigan xizmat dastlab tunash va ovqatlanish kabi 2-3 xil xizmatlar ko'rsatilgan. Bunday xizmatlar ko'p hollarda bepul ko'rsatilgan. Ammo vaqt, asrlar o'tishi bilan sekin-asta mezbon tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar kumush, oltin tangalarga yoki pulga chaqilib borgan. Buning natijasida bir tomondan sayyohlar soni ko'payib borgan. Qadimgi Rim va Yunonda, eski Movarounnahrda mehmonxona shaklida:

hainlar, innlar, karvonsaroilar qurila boshlangan va sayohatchilarga, artistlarga, savdogarlarga, ziyoratchilarga mo'ljallangan bo'lgan.

Ko'p asrlar o'tsa ham qadimiy ilk mehmonxonalar tarzi o'zgarmagan. Asosan, bu joylashuv vositalari otlar uchun atrofi o'ralgan, ikki qavatli bino bo'lib, birinchi qavatda qahvaxona va ikkinchi qavatda esa yotoqxonaga bo'lgan. Ularda sayohatchilarga xizmat ko'rsatish uchun yopiq va ochiq yo'laklar, moslamalar qurilgan. O'sha vaqtlardan boshlab sayohatchilarga boshqa turli maishiy xizmatlar ko'rsatishlari mehmonxonaga egalari va oila a'zolari hamda mayda hunarmandlar tomonidan ko'rsatila boshlandi. Endi mehmonxonalarda faqatgina tunash va ovqatlanish xizmatlari emas, balki dam olish, kir yuvish, hordiq chiqarish va boshqa madaniy-maishiy xizmatlarga bo'lgan sayohatchilar ehtiyojlari qondira boshlandi. Buning natijasida pulga ko'rsatiladigan xizmatlar miqdori yillar o'tishi sayin ko'payib bordi, turistik mehmonxonaga majmualari vujudga keldi. Ixtisoslashgan turistik tashkilotlar, vositalar, agentliklar, turistik ekskursiya ob'ektlari paydo bo'la boshladi. Bularning hudud, mamlakat va dunyo bo'yicha boshqarish masalalari ob'ektiv holda ko'ndalang bo'lib qoldi.

Kishilik jamiyati taraqqiy etishi bilan chuqur iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va fan texnika taraqqiyoti sababli sayohatchilik ham o'zgarib borgan. Boshqa shakllarga ega bo'lgan. Ayniqsa insoniyat hayot yo'lida fan texnika taraqqiyoti tufayli sayohatchilik shakllari bir turdan, ikkinchi turiga o'tib turgan. Masalan, agarda qadim zamonlardan sayohatchilikning asosiy harakat vositasi ot, eshak, tuya va boshqa hayvonlar bo'lgan. O'rta asrlarda arava, foytun, har xil moslashgan g'ildiraklar bo'lgan bo'lsa hozirgi zamonda sayohatchilar samalyot, poyezd, avtomobillar, paraxodlar hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan turizm sohasi sayohatchilikdan turizm ko'rinishiga o'ta boshladi. Kishilik jamiyati taraqqiyot yo'lida ilk marotaba fan, texnika inqilobi vujudga kelib suvning bug'kuchi energiyasidan foydalanish natijasida Angliyada to'qimachilik sanoatida - "Jinni" degan mexanik mashinasi vujudga keldi. Buning natijasida hunarmandchilik sanoatida katta o'zgarishlar vujudga keladi. So'ngra fan-texnika inqilobi natijasida ichki yonar dvigatellari va elektr kuchidan foydalanish tizimlari vujudga keldi. Bunda ommaviy ravishda avtomobilsozlik, samolyotsozlik va tez yurar poyezdlar paydo bo'ldi. Keyinchalik fan - texnikaning rivojlanishi yadro energiyasi bilan ishlash, kompyuterlashtirish bilan bog'liqdir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turizm industriyasi davri boshlandi. Bu davrda yer sharining aholisi ikki martobaga ko'paydi. Aholining o'sishi ularning yashab turgan joylaridan boshqa yurtlarga borishlarini tezlashtirdi. Ommaviy turizm rivojlanishiga ulkan qurilishlar va texnika progressi katta

turtki bo'ldi. Buning natijasida shaharlar aholisining soni tez o'sib bordi. 1830 yilda Angliyaning Manchester va Liverpool shaharlari o'rtasidagi temir yo'lining qurilishi turizm chegarasini o'zgartirib yubordi.

Dunyoning ko'proq yirik shaharlarida shakllanib kelgan o'rta hol sinf vakillari turizm sanoatning xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarida band bo'lgan va daromadlar miqdori doimo oshib borganligi sababli sayohat, dam olishga ko'proq imkoniyat yaratiladi. Dam olish vaqtini maroqli o'tkazish ehtiyoji va imkoniyatlarni ko'payib borish talabi o'z o'rnida taklifni vujudga keltirdi va ko'ngil ochish, o'yin-kulgi industriyasini shakllantirdi.

Sayohatning u qadar yoyilmagan va uning infratuzilmalari taraqqiy etmagan vaqtda turistik sayr-safarlar oz bo'lgan va sayohatchilarning dam olishlarini tashkilotchilari faoliyat ko'rsata boshlagan. Sekin-asta mamlakat, hudud, shahar, qishloq miqyosida qandaydir - "turistik majmua" va kishilarning bunga bo'lgan ehtiyojini tug'dira boshlagan. Dastavval kishilarning bunga bo'lgan ehtiyojini transport agentliklari bajarganlar. Shu bilan birgalikda sayohat industriyasi evolyutsiyasi va tijorat ishlarining keng yo'lga qo'yilishi turizm tashkilotchilarning transportga bo'lgan ehtiyojlari sayohatchilarni mehmonxonalarga joylashtirishni ta'minlash zarurati tug'ilgan.

Shunday qilib, odamlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining doimiy o'sib borishi sayohatchilik bo'yicha pulli xizmat ko'rsatuvchi turistik korxonalarining va o'z o'rnida turizm tashkilotchilarini paydo bo'lishiga olib keldi. Aholining ko'proq qismi sayohatga bo'lgan talabini qondirish va uning sayohati dasturini ishlab chiqish turistik tashkilotchilariga ishonib topshirganlar. Bu jarayon faoliyat ko'rsatadigan Transport kompaniyalarining turistik bozorga bo'lgan ulushini kengaytirishga olib keldi. Hozirgi kun nuqtai nazaridan qarab aytish mumkinki, bu ilk turopereytingni paydo bo'lishi edi, faoliyat ko'rsatadigan va xizmatlar - "turpaketini" tayyorlovchilar esa turoperatorlar edilar.

Turistik sayohatni birinchi tashkilotchilaridan biri Angliyaning ruhoniysi Tomas Kuk bo'lgan. Bu tadbirkor 1841 yilda temir yo'l bo'ylab 600 kishilik sayohatni tashkil etgan. 1845 yilda Liverpool shahriga ekskursiya o'tkazish uchun sayohat tashkil qilgan. 1847 yilda Tomas Kuk turistik jamiyatni tashkil etdi va u nafaqat Angliya bo'ylab, balki tashqi mamlakatlarga borish uchun yo'llanmalar sota boshladi. U turizm industriyasi sohasida ish yuritgan va tadbirkor bo'lgan birinchi sohibkor edi. 1851 yilda Parijda o'tkazilgan Xalqaro ko'rgazmaga inglizlar qatnashuvini tashkil etdi. 1870 yilga kelib - "Tomas Kuk" turistik firmasining 500 mingdan ortiq mijozi bo'lgan. Shu vaqtdan boshlab turizm industriyasi logistikasi erasi boshlandi. Sayohatchilarga xizmat ko'rsatadigan

turistik tashkilotlar vujudga kela boshladi. Yevropa va Amerika qit'alari o'rtasida doimiy paroxod dengiz yo'llari ochildi.

Ko'proq dunyoning yirik shaharlarida shakllanib kelgan o'rtaxol sinf vakillari sanoatning xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarida band bo'lgan va daromadlar miqdori doimo oshib borganligi sababli sayohat, dam olishga ko'proq imkoniyat yaratilgan.

Dam olish vaqtini maroqli o'tqazish ehtiyoji va imkoniyatlarni ko'payib borishi talabi o'z o'rnida taklifni vujudga keltiradi. Turizm va sayyohlik bugungi kunda dunyoning yetakchi iqtisodiy tarmoqlaridan biri ekanligi sir emas va ushbu tarmoq o'zining jadal rivojlanish tendensiyasini davom ettirmoqda. Ushbu tarmoqni dunyoning deyarli barcha davlatlarini, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarini o'ziga qaratayotgan jozibador jihatlari shundan iboratki, avvalambor mamlakatga valyuta tushumini oshirib uni tabiiy resurslarga qaramlikdan bartaraf etishi mumkin, qolaversa mamlakatlar aholisini ish bilan ta'minlashda katta samara beradi.

Turizm va sayyohlik jahon iqtisodiyotining – "ustun" niga aylanishi kutilayotgan muhim sohadir. Butun dunyoda 2017-yilda turizm va sayyohlik Tarmog'ining o'zi 2,57 trln AQSh dollari miqdorida daromad keltirdi (jahon YaIM ning 3,2% ni tashkil qiladi) va bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 10,4% ga oshdi. Turizm va sayyohlikning bevosita va bilvosita ta'sirini hisobga olgan holda, sektor

jahon iqtisodiyotiga 8,227 trln AQSh dollari miqdorida (jahon YaIM ning 10,4% i) daromad keltiradi.

Turizm va sayyohlik dam olish hamda biznes maqsadlariga ko'ra ikki yo'nalishda tadqiq qilinadi. 2017 yilda barcha sayohatlarning 77,5 foizi dam olish maqsadlarida, qolgan 22,5% biznes safarlariga to'g'ri kelgan. Shuningdek, turizmni ichki va tashqi turizm sifatida ajratib ko'rilsa, 2017-yilda mahalliy sayohatlar (ichki turizm) sohaning umumiy daromadalaridagi ulushi 72,7 foizni tashkil etdi va xalqaro safarlarga qaraganda sezilarli kattaroq hissa qo'shdi. Chet ellik turistlarning ulushi esa 27,3% ni tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони. 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Tursunalievich, M. A. (2022). Improving the cost management mechanism in the construction industry logistic chains. Innovative developments and research in education, 1(6), 253-259.

3. Mirsodikov, A. (2023). Approaches to the essence of logistics structures and formation of logistics chain. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 383-388.
4. Abdulla, M. (2022). Improving Cost Management Processes in Construction Logistics Chains. *Miasto Przyszłości*, 28, 419-423.
5. Мирсодиков, А. (2023). Совершенствование методологии управления деятельностью логистических цепей в строительной области. *Solution of social problems in management and economy*, 2(8), 22-29.
6. Mirsodikov, A. (2023). Improving the management methodology of logistics chain activity management in the construction field. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(15), 33-40.
7. Mirsodikov, A. (2023). Issues of evaluating the economic effectiveness of innovation projects in the construction field. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(5), 23-28.
8. Teshabayeva, O. (2023). The need to form the activities of tourist complexes in order to increase the competitiveness of the country's tourism industry. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(15), 50-60.
9. Teshabayeva, O., & Gofurov, J. (2023). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida turizm sohasini boshqarishda yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'ziga xos xususiyatlari. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6 Part 3), 109-117.
10. Nasridinova, T. O. (2023). Factors affecting the management of competitiveness in tourism enterprises. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 159-163.
11. Жамолиддинова, М. Д. (2023). Методика подготовки специалистов в сфере туризма к устной речи на иностранном языке. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 113-118.
12. Jamoliddinova, M. D. (2023). Strategy for the development of innovative tourism services in the field of marketing in uzbekistan. Publishing House "Baltija Publishing".
13. Jamoliddinova, M. (2023). The main theories of the peculiarities of stress in the turkic languages. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(6 Part 6), 169-172.
14. Teshabaeva, O. N., & Ikromova, M. O. Q. (2023). Turizm industriyasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o

'ziga xos xususiyatlari va muammolari. Results of National Scientific Research International Journal, 2(5), 218-230.

15. Nasridinovna, T. O. (2023). Methodological Foundations for Assessing Competitiveness. Miasto Przyszłości, 36, 437-440.

16. Teshabaeva, O. N. (2023). Analysis of industrial policy and investment processes in the production and enterprises of innovative products in the economy of Uzbekistan. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(3), 48-58.

17. Nasridinovna, T. O., & Nasridinovna, T. O. (2023). Analysis of industrial policy and investment processes in the production and enterprises of innovative products in the economy of Uzbekistan. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1 (3), 48-58.

18. Тешабаева, О. Н. (2023). Развитие и управление национальной моделью туризма в Узбекистане. Новые технологии в учебном процессе и производстве, 349-352.

19. Teshabayeva, O. N., & Abdullayeva, M. M. (2023). Foreign experience of small business development and directions of its introduction into the economy of our country. Scientific progress, 4(4), 387-396.

20. Хомидов, К. (2022). Повышение доходов производителей.

21. Khomidov, K. (2023). Characteristics of improving organizational and economic mechanisms of management in higher education institutions. Publishing House "Baltija Publishing".

22. Хомидов, Қ. (2018). Ускоренно развивающиеся отрасли экономики Республики Узбекистан. Scienceweb academic papers collection.

23. Homidov, K. K. U. (2022). Issues of ensuring food security in Uzbekistan. Scientific Impulse, 1(4), 1529-1534.

24. Юлдашева, Г. А., & Хамидов, К. (2022). Процессы модернизации системы бухгалтерского учета на предприятиях. Gospodarka i Innowacje, 30, 230-231.

25. Homidov, K. K. U. (2022). Improvement of Organizational and Economic Mechanisms of Management in Food Industry Enterprises in Innovative Development of the Economy. American Journal of Economics and Business Management, 5(11), 50-55.

26. Хомидов, Қ. (2019). Цифровая экономика-путь к совершенству. Scienceweb academic papers collection.

27. Ўғли, Х. Қ. Қ. (2022). Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлиги таъминлаш масалалари. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 10-15.
28. Xomidov, Q. (2019). Кластер-действенный инструмент конкурентоспособности региона. Scienceweb academic papers collection.
29. Xomidov, Q. (2020). Iqtisodiyotni investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning ahamiyati. Scienceweb academic papers collection.
30. Xomidov, Q. (2019). Iqtisodiyotimizni raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion tadbirkorlikning o'ri va ahamiyati. Scienceweb academic papers collection.
31. Xomidov, Q. (2019). Aholi bandligi ta'minlash-iqtisodiy munosabatlarning muhim omili. Scienceweb academic papers collection.
32. Akhmedova, N. K., & ugli Homidov, K. K. (2022). Institutional Basis of Digitalization of Management Activity of Food Industry Enterprises in Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 5(11), 34-38.
33. Хомидов, К. К. (2019). Socioeconomic characteristics of employment in Uzbekistan. Инновационная наука, (7-8), 64-66.
34. Хомидов, К. К. (2019). Перспективный комплекс экономики Узбекистана. In Современная мировая экономика: проблемы и перспективы в эпоху развития цифровых технологий и биотехнологии (pp. 54-56).
35. Homidov, K. (2023). Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(7), 33-38.